

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

P.S.Otaqulov

Geografik nomlarni o'rganishga ijtimoiy-ekologik yondashuv 92

B.M.Dehqonov

Andijon viloyati ekin yerlari monitoringi va uni baholash 97

X.Sh.Djo'rabyevo

An'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishida geografik omillarning o'rni 101

ILMIY AXBOROT**M.K.Usmonaliyeva**

Chor Rossiyasi hukmronligi davrida turkiston o'lkasida milliy matbuotning vujudga kelishi 105

O.N.Fozilova

Oybekning bolalarga atalgan hikoyalarda qahramon talqini 108

J.J.Mamatisakov

Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirishning innovatsion - pedagogik modeli 113

N.B.Yuldasheva

Ingliz va o'zbek tillari matnlaridagi paremiyalarni tadqiq etishning muxim jihatlari 121

G.O.Abdujalilova

Ekspozitsiya va uning badiiy-estetik funksiyasi 124

X.Z.Umarova

Epistolary lines: the transformative power of letters in saul bellow's novel «Herzog» 127

D.Hakimova

Yosh voleybolchilarning maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish 130

G.M.Alamov

Xalq o'yinlari va milliy bellashuvlarning o'quvchi-yoshlarni tarbiyalovchi muhim omil sifatidagi ahamiyati 135

A.K.Xudayberdiyev, M.J.Usmonova

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yagona to'g'ri yo'li-ta'lim sifatini oshirish 139

S.R.Xoliqov

Yangi O'zbekiston yoshlарining ma'nавиати va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullari 143

M.A.Aliева

Неомифологизм в творчестве дмитрия сергеевича мережковского 147

A.Y.Ergashev

Yangi O'zbekistonda pedagogning maqomi: ijtimoiy-falsafiy tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari 152

Z.X.Oxunova

Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-antropologik mazmuni 155

X.J.Isomiddinov

Yoshlar tafakkurini rivojlantirishning tarixiy-falsafiy jihatlari 158

R.D.Mustayev

Vatanparvarlik tushunchasining tarixiy-falsafiy mohiyati 161

B.I.Muxtoraliyev

Ilk hikoyalardagi ijodiy o'ziga xoslik 165

D.S.Abduqodirov

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari 171

M.M.Azizov

Methodology of optimizing sports and health programs through scandinavian walking 174

A.U.Xamidjanov

Yuqori malakali kurashchilarni vazn-bo'y ko'rsatkichlarini model xususiyatlari o'rganish asosida yosh erkin kurashchilarni saralash va yo'naltirish metodikasi 181

G.T.Dadamirzayeva

Inson salomatligi va ruhiyatiga musiqaning ta'siri 191

TURKİSTONDA YER-SOLIQ KOMİSSİYASINING FAOLIYATIGA DOİR AYRIM MULOHAZALAR

НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ О ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЗЕМЕЛЬНОЙ НАЛОГОВОЙ КОМИССИИ В ТУРКИСТАНЕ

SOME REMARKS ON THE ACTIVITY OF THE LAND TAX COMMISSION IN TURKEY

Tojirov Sanjarbek Saydali o'g'li¹

¹Farg'onan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Turkiston o'lkasidagi yer-suv masalalari, soliq tizimi, qishloq xo'jaligining ahvoli va irrigatsiya inshootlariga nisbatan olib borilgan mustamlaka siyosatining oqibatlari ilmiy asosda ochib berilgan. Shuningdek, imperiyaning mustamlakachilik siyosati mohiyati, maqsadi hamda ruslashtirish, mintaqaga boyligini o'zlashtirish, xomashyo bazasini mustahkamlash, sanoat mahsulotlari bozorini kengaytirish masalalari ham atroficha yoritilgan.

Annotatsiya

Эта статья показывает последствия колониальной политики экономической системы, налоговой системы, сельскохозяйственной ситуации и ирригационных объектов на научной основе. Вопросы овладения колониальной политикой, целью и возмещением колониальной политики империи также охватываются развитием сырья, укрепляя рынок сырья.

Abstract

This article reveals the consequences of the colonial policy of the economic system, tax system, agricultural situation and irrigation facilities on a scientific basis. The issues of mastery of the colonial policy, purpose and reimbursement of the colonial policy of the empire is also covered by the development of the raw material, strengthening the raw material market.

Kalit so'zlar: Turkiston o'lkasi, yer-suv masalalari, soliq tizimi, irrigatsiya inshootlari, ko'chirish siyosati, paxtachilik, qishloq xo'jaligiga oid qonunlar, mustamlakachilik siyosati.

Ключевые слова: Туркестан Край, Земельные проблемы, налоги, ирригационные учреждения, политика, хлопок и сельскохозяйственная политика, колониальная политика.

Key words: Turkestan Krai, land issues, taxes, irrigation facilities, policies, cotton and agricultural policy, colonial policy.

KIRISH

XIX asrning 70-yillardan boshlab Turkiston o'lkasi iqtisodiy hayoti Rossiya imperiyasi manfaatiga xizmat qila boshladı. Hamda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Turkiston generall-gubernatorligi hukumatining asosiy maqsadi mintaqani imperiya iqtisodiyotiga bўysindirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish edi. Ma'lumki, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasida to'qimachilik sanoatining tez sur'atlar bilan kengayib, xomashyoga bo'lgan talabning o'sib borishi kuzatildi. Shuningdek, ayni vaqtida Amerikadan olinadigan paxta importining to'xtab qolishi xavfining paydo bo'lishi podsho hukumati ma'muriyatini O'rta Osiyoda paxtashilik bilan jiddiyroq shug'llanishni taqazo etdi. Bundan tashqari, ko'p sonli rusiyabzon aholining o'lkaga ko'shirib keltirilishi vaziyatni yanada keskinlashtirdi. Turkistonda ko'chirib keltirilgan aholining shahar va qishloqlari qad ko'tardi.

Turkistanda yerdan foydalanish Rossiya imperiyasidagi tizimdan farq qilib, bu yerdan sug'orish orqaligina foydalanish mumkin edi. Ushbu holat yerga egalik qilish va undan foydalanishda esa sug'orish inshootlariga ham egalik qilishni talab etar edi. Shu sababli yerga egalik va yer masalasi ko'tarilganda, irrigatsiya masalalari, uning huquqiy tomonlari yechimi zarur edi.

Rossiya imperiyasi o'lkani bosib olgach, Turkistonda yer-suv masalalari, unga nisbatan olib borilgan jiddiy siyosat va uning oqibatlarini ilmiy asosda o'rganish dolzarb muammolardan biridir. Mahalliy dehqonlar orasida yersizlar, kam yerga ega bo'lganlar salmog'i ortishiga, tub joyli aholiga mansub kishilarning ijtimoiy ahvoli, turmush tarzining nihoyatda og'irlashgani kuzatilgan. Hamda mustamlakachilik asoratlari barcha jabhalarda birdek namoyon bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasidagi yer-suv masalalari, soliq tizimi, qishloq xo'jaligining ahvoli va irrigatsiya inshootlariga nisbatan olib borilgan

mustamlaka siyosati mohiyatini olib berishga qaratilgan mustamlakachilik davri nashrlariga quyidagi tadqiqotlarni keltirish mumkin. Jumladan, A.P.Xoroshxin, A.F.Middendorf, A.Fedchenko, N.A.Maev, G.Aranderenko, V.I.Kushelevskiy, V.I.Masalskiy, A.I.Shaxnazarov, E.S.Vulfons, I.I.Geyer, A.Kursish, V.F.Karavaev, A.P.Kuplast, N.N.Aleksandrov kabi mualliflarning asarlarida Turkiston yer-suv siyosati mustamlaka hukumati nuqtai nazaridan baholangan. Hamda, ularda olib borilgan hukumat siyosatiga ijobjiy jarayon sifatida qaralgan. Turkistondagi yer-suv masalalari haqida "Turkestanskiy sbornik" va o'sha davrdagi matbuot sahifalarida ham o'nlab maqolalar chop etilgan.

Sovet hokimiyati yillarda bir qancha ilmiy ishlar yaratilgan. Hususan, XX asrning 20-30-yillarda sovet tarixshunosligida Rossiya imperiyasining yer-suv masalalari bilan bog'liq maxsus tadqiqotlar yaratilmagan. Lekin, V.I.Yuferev, A.K.Silenov, V.V.Bartold, P.G.Galuzo, V.Lavrentev kabi mualliflarning asarlarida Turkiston qishloq xo'jalik hayotida yuz bergan o'zgarishlar haqida fikrlar yuritilgan. XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan M.N.Kabirov, A.P.Fomchenko, P.L.Vereshagin, N.N.Kanoda, D.O.Aytmambetov, A.I.Ginzburg kabi mualliflar asarlarida Turkiston yer egaligi siyosati tarixi kommunistik mafkura ta'sirida, o'lkanning Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilishini "progressiv ahamiyati" to'g'risidagi konseptual yondashuv asosida yozilgan va yoritilgan.

Mustaqillik yillarda bu borada ko'plab, salmoqli ishlar bajarilgan. Jumladan, N.Abdurahimova, F.B.Is'hoqov, H.Z.Ziyayev, S.B.Shodmonova, N.U.Musayev, Sh.G'afforov, N.Sobirov, N.B.Mahmudova, J.Sh.Xayitov, M.Jabborov va R.Arslonzoda, N.Alimovalarning tadqiqotlarida imperianing mustamlakachilik siyosatining mohiyati, maqsadi, mintqa boyligini o'zlashtirish, xomashyo bazasini mustahkamlash, sanoat mahsulotlari bozorini kengaytirish masalalari talqin qilingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, har doim, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda va har qaysi mamlakatda mazkur davlat agrar siyosatining asosini yer masalasi tashkil qiladi. Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinganidan so'ng ushbu masala mustamlakachilarning agrar siyosatidagi bosh masalasiga aylandi. Birinchi galda Rossiya imperiyasi mustamlakachilari Turkistonda yer-suv munosabatlарини Markaz manfaatlariga moslashtirishdan oldin o'lkada tarixan qaror topgan an'anaviy, mavjud yerga egalik munosabatlarini o'rganib chiqishni lozim deb topdiganlar. Natijada, o'lkada o'tkazilajak yer-suv islohotlariga tayyorgarlik sifatida o'lkada bir qator izlanishlar, tekshirishlar o'tkazgan. Masalan, K.P.Kaufman Turkiston yer zahiralarini Markaz manfaatlariga moslashtirish maqsadida sohaga olimlar, mutaxassislarni jalg qiligan. U o'lkanning musulmon shariati orqali boshqarilgan huquqiy munosabatlari orasida aynan yer mulkchilik munosabatlariga alohida e'tibor qaratgan. Jumladan, 1868-yildayoq polkovnik M.Nikolayevga mahalliy o'troq va ko'chmanchi aholining yerga bo'lgan amaldagi huquqlarini o'rganishni, shu bilan birga davlat yer tasarrufi huquqlarini aniqlash vazifasini topshirdi. Shu bilan birga M.Nikolayevga bu borada jiddiy ko'rsatmalar berilgan. Chunki, Turkistonga ko'chirib keltirilgan ko'p sonli rusiyabon aholining joylashtirilishida ham agrar soha juda muhim ahamiyat kasb etar edi. Jumladan, 1875-yildan, to 1890-yilgacha Turkistonga 1300 oila ko'chib kelib, 19 ta ko'chirib keltirilgan aholi qishlog'i vujudga kelgan. 1891-1892-yillar Rossiya imperiyasida ocharchilik kuchaygan vaqtida ushbu manzillar soni 25 taga yetgan [1;100]. Turkistonga ko'chirib keltirilgan rusiyabon aholiga beriladigan yer 10 tanobdan kam bo'imasligi belgilab qo'yilgan [2;216].

Ishda ko'plab izlanishlar, tayyorgarliklardan so'ng K.P.Kaufman 1868-yil 6-oktabrda general mayor A.I.Gomzin boshchiligidagi yer va mulk masalalari bo'yicha maxsus komissiya tuzish haqida buyruq e'lon qilindi. Shunday qilib, 1873-yilga qadar o'lkada yer-suv munosabatlari A.L.Kun, M.Nikolayev, V.Kamarovlar tomonidan yig'ilgan materiallar asosida ko'rib chiqishga harakat qilindi. Bundan tashqari A.I.Gomzin komissiyasi tomonidan 1868-yildayoq yer masalasi bo'yicha o'zining materiallarini "Yer-mulk komissiyasi jurnali" nomi ostida uchta bayonnomani taqdim qilgan edi [3;16]. Yuqorida komissiyalar to'plagan ma'lumotlarda o'troq mintqa yer mulkchiligi yuzasidan bir qancha yo'rqnomalari ishlab chiqildi. Ular dastlab 1873-yilgi yer mulkchiligi tuzilishi haqidagi Nizomda aks etdi.

M.Nikolayevning yer mulkchilik sohasidagi an'anaviy manzara haqida tuzilgan ma'lumotnomasida mustamlakachilik mohiyati quyidagicha ifodalangan edi. Jumladan, "Barcha aholining va ayrim olingan har bir kishining yerga bo'lgan huquqi istilo qilingan mamlakatda avvalo olyi jamiyatning xohish va ifodasidan kelib chiqqan holda hamda Yevropa mamlakatlari tajribasidan kelib chiqqan holda olib borilmog'i maqbuldir. Bu ishda muhim bir jihatni e'tibordan qoldirmaslik lozim, u ham bo'lsa yer mulkchiligi masalasida avloddan avlodga o'tib kelgan xususiy mulkchilik an'analarini buzib yubormaslikdir" [4;1].

ILMIY AXBOROT

Avvalo, Turkistonda yerga egalikning asl mohiyati jamoa mulki va podsholik mulki xususiyatiga ega bo'lgan. Ammo jamoa mulki bo'lgan yerning o'zlashtirilmagan qismlariga suv chiqarish, haydar ekin ekish orqali xususiy mulklar ham yuzaga kelgan edi. Ularning soliqlarga tortilishi esa asosan ikki xil bo'lib, jamoa mulkidan xiroj, xususiy yerlardan tanob solig'i olingan. Davlat tasarrufi esa ishlov berilgan yerborda qaratilgan.

1867-yil 25-martda K.P.Kaufman tomonidan Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini boshqarish to'g'risidagi loyiha ishlab chiqilgan. Ushbu loyihaning 295-moddasi bevosita vaqf mulklariga aloqador bo'lgan. Unda, shunday deyiladi, - "Viloyat boshqarmalarida yerborda tegishli bo'lgan vaqf hujjatlari ko'rib chiqilgandan keyin mavjud tartib-qoidaga ko'ra ular soliqlardan ozod etilgan va etilmaganlarga ajratiladi. Yangi tashkil etilgan vaqf mahkamalari esa umumiy asosda xiroj va tanob soliqlari to'lashlari lozim" [5;58]. Qabul qilingan ushbu yagona modda imperiya hukumati ma'muriyatida vaqf mahkamalariga nisbatan turlicha munosabatda bo'lishga olib keldi. Keyinchalik K.P.Kaufman rahbarligidagi Turkiston general gubernatorligi ma'muriyati "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizomini tayyorladi va 1886-yil podsho hukumati tomonidan tasdiqlandi. "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom"da 265-, 266-, 267-, 286-, 289- va 299-moddalar bevosita vaqf masalasiga tegishli edi [6;28].

Ushbu "Nizom"ning 265-moddasida shunday deyilgan, jumladan "Qishloq jamoalari tarkibiga kiruvchi va hukumat tomonidan e'tirof etilgan aholi yashaydigan vaqf mulklari 255-, 261-, 263- va 264-moddalarga asosan o'sha jamoa aholisi ixtiyorida qoldiriladi. Hukumat tomonidan e'tirof etilgan aholi yashamaydigan "Vaqfi avlod" mulklari mana shu avlod tugagunga qadar ular ixtiyorida qoldiriladi". Bundan ko'rinish turibdiki, 1886-yil Nizomning Turkiston mustamlaka o'lkasida agrar masalalar bo'yicha bandlari va ularning ijrosi hamda takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha hujjatlarning mazmun va mohiyati o'ikaning barcha yer zahiralarini istisosiz ravishda iqtisodiy qaram holga solish maqsadi ko'zda tutilgan.

O'lkani Rossiya imperiyasi bosib olgach, XIX asrning 80-yillari boshlarida Rossiya imperiyasining tarkibiy qismi bo'lib qoldi. XIX asrning 60-90-yillarida Rossiya imperiyasi o'lkada sanoat korxonalarini zo'r berib barpo etishga kirishdi. Hamda, o'lkada o'z manfaatiga mos keladigan o'zgarishlarni amalga oshirishga kirishdi.

XIX asrning 80-yillaridan boshlab, ayniqsa, paxtachilikka e'tiborning keskin ortishi va Zakaspiy temir yo'li qurilishi munosabati bilan, imperiya sarmoyadorlarining o'lkaga yopirilib kelishi iqtisodiy hayotga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Mahalliy hunarmandchilik kasodga uchrab, ijtimoiy ahvoli og'irlashdi.

Mahalliy aholidan avvalgiday xiroj va tanob o'lponlari olinib turildi. Xususan, o'lpon hosilning o'ndan bir hissasi miqdorida olingan. Ko'chmanchi aholidan esa xonodon boshiga 3 rubl 50 kopek o'lpon to'langan. Umuman, aholidan olinadigan o'lponlar tartibga solinmagan edi. Ma'muriyat tuzilmalarida hanuz aholidan soliqlarni sobiq xon amaldorlari undirgan. Ushbu amaliyotning o'lda jo'lda olib borilishi, tizimning tartibsizligi soliqlarning kamayib ketishiga olib kelgan. Natijada, Turkiston o'lkasida yer-suv inshootlari qurilishi masalalari Adliya vazirligi tomonidan, ayniqsa, qattiq, tanqid qilinadi. Senator Palen esa reviziya qilib, yozgan xulosasida Turkistondagi yer egaligiga baho berib, "Turkistonda mayda yer egaligi ko'pchilikni tashkil etgan"ligini ta'kidlagan edi [7;118].

1873-yil loyihasiga muvofiq, amlok yerlarini ularda amalda ishlagan dehqonlarga berish va ushbu tartibni keyinchalik vaqf va mulk yer egaligiga ham joriy qilish rejalashtirilgan edi [8;86]. Biroq yer va suv bilan bog'liq masala uzoq yillar davomida o'z yechimini topmadidi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Turkiston o'lkasi bosib olingach, podsho hukumati boshqaruva tizimida ham, agrar sohada ham ko'plab islohotlarni amalga oshirdi. Shuningdek, ko'plab qonun va loyihalarni joriy qildi, qat'yan Nizomlarni ishlab chiqdi. Biroq, ishlab chiqilgan qonun va qoidalar, amalga oshirilgan islohotlar mustamlaka hukumat manfalariga xizmat qildi. Oqibatda mahalliy aholi manfatlari hisobga olinmadidi. Aholi turmush darajasi og'irlashdi.

Yer va suv munosabatlari to'laqonli ravishda tartibga solinmadidi. Mahalliy aholi soliqlar ko'pligi va asossiz ravishda ortib borishidan ozor chekdi. Olib borilgan siyosat oqibatida yerga bo'lgan an'anaviy ishlov berish usullaridan voz kechildi. Bu boradagi ming yillik tajriba e'tiborga olinmadidi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alimova N.O. O'zbekiston tarixi (o'quv qo'llanma). – Farg'ona, 2022.
2. Ўзбекистонинг янги тарихи (Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида) Биринчи китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000.

3. Эргашев Ф. Туркистанда мустамлака хўжалик Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2003. – № 1.
4. Зияева Д.Х. Туркистон ўлкасида аграр тизимни мустамлакачилик манфаатларига бўйсундириш учун кураш тарихидан (1865-1875 йиллар): Qarang. www.tashu.uz.
5. Болтабоев С. Туркистондаги вақф мулклари тарихи (ўқув-услубий қўлланма). – Наманган, 2005.
6. Ўз РМА, 1-фонд, 12-рўйхат, 630-иш, 28-варақ.
7. Абдурахимова Н, Эргашев. Ф. Туркистанда чор мустамлака тизими. – Тошкент: Академия, 2002.
8. Ўзбекистон ССР тарихи. 1-том. Иккинчи китоб. – Т.: Ўзбекистон, ССР Фанлар академияси, 1957.